

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
«O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.2.131.5**

BABAYEV FARRUX MANSUROVICH

**O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURIYATCHILIGINING
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A S I Y a

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor F.I.Isayev

Toshkent – 2025

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§.	Soliq ma'muriyatchiligining mohiyati va vazifalari.....	12
1.2-§.	Soliq ma'muriyatchiligining huquqiy asoslari.....	27
1.3-§.	Soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash mezonlari va uslublari.....	40
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	62
II BOB.	O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI.....	63
2.1-§.	O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligining hozirgi holati va uning asosiy ko'rsatkichlari.....	63
2.2-§.	Soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiyot va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga ta'siri tahlili.....	75
2.3-§.	Soliq ma'muriyatchiligidagi mavjud muammolar va kamchiliklar.....	89
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	103
III BOB.	O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	104
3.1-§.	Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning xalqaro tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	
3.2-§.	Soliq ma'muriyatchiligini samaradorligini oshirish yo'llari.....	114
3.3-§.	Soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilgan modelini joriy etish va uning istiqbollari.....	126
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	138
	XULOSA.....	140
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	143
	ILOVALAR.....	157

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida soliq ma'muriyatchiligini baholash va uni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarga ehtiyoj tobora oshib borayotgani, avvalo, jahonda raqamli transformatsiya natijasida yig'im protseduralari tubdan o'zgarayotgani bilan asoslanadi. OECDning "Tax Administration 2024" hisoboti ta'kidlaydiki, "58 ta ilg'or va rivojlanayotgan yurisdiksiyaning deyarli barchasi elektron hisobot va sun'iy intellekt asosida risk-menejmentni joriy etgan, natijada soliqlarni jamgariش xarajatlari o'rtacha 1 foizdan pastga tushgan va komplayens darajasi tarixiy yuqori nuqtaga chiqqan"¹. Ham global, ham milliy darajadagi bu tezkor o'zgarishlar davlat xazinasini barqarorligini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va raqamli iqtisodiyotga mos soliq infratuzilmasini yaratish uchun ma'muriy samaradorlikni aniq o'lchovlar orqali baholash metodologiyasini yangilashni talab etmoqda. Shu bois mavzuni chuqur o'rganish soliq tizimini strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish uchun o'ta dolzarb vazifaga aylandi.

Xalqaro tadqiqotlarda soliq ma'muriyatchiligini baholash va takomillashtirish yo'nalishlari salmoqli darajada kengaymoqda. Zamonaviy tadqiqotlar, avvalo, soliq yig'imlarining xarajat-hosil munosabatini, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini va raqamli infratuzilmaning tayyorligini o'lchashga qaratilgan. Tadqiqotchilar TADAT kabi global diagnostika vositalaridan, dinamik panel-ma'lumotlar modellaridan hamda machine-learning algoritmlaridan foydalanib, soliq ma'muriyatlarining KPIlari yig'im-xarajat koeffitsiyenti, komplayens darajasi, audit qoplanish ulushi va soliq qarzi aylanish tezligini real-timeда monitoring qilmoqda. Shu bilan birga, "sunset clause" va samaradorlik auditi orqali islohot natijalari institutsional mustahkamlanmoqda. Bunday ilg'or metodologiyalar soliq ma'muriyatchiligini shaffof, kam-xarajat va innovatsion tarzda rivojlantirish, shu orqali davlat byudjeti barqarorligi va iqtisodiy o'sishni

¹ OECD (2024), Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/2d5fba9c-en>.

qo'llab-quvvatlashga xizmat qilayotgani sohaning dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylantirdi.

Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini amalga oshirish davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xususiy sektorni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 20 dekabdagi yig'ilishda: "...qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosati yuritilishini ta'kidlab. Jumladan, hozirgi kunda byudjet tushumlari qanchalik zarur bo'lmasin, asosiy soliqlar bo'yicha stavkalar o'zgarmaydi. Shuningdek, 1 yanvardan boshlab, yer yoki davlat mulki qo'shilgan qiymat solig'isiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig'i bekor qilinadi"², - deb ta'kidlab, soliq ma'muriyatchiligini oldiga keng ko'lamli vazifalarni belgilab berdi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligini shaffof, kam-xarajat va innovatsion shaklga olib chiqish orqali byudjet daromadlarini ko'paytirish va tadbirkorlik uchun adolatli raqobat muhitini barqaror qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024 yil 23 yanvardagi PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023 yil 21 dekabrda PQ-402-son "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Tadbirkorning yutug'i – butun xalqimizning yutug'i. 20.12.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>